

TALABA YOSHLARNI IJTIMOY- INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH

Karimova Malohatoy Mo‘minjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
Holdorova Hamida
Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti pedagogika yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA: Bu maqolada bugungi kunda talaba yoshlarga yaratilgan shart - sharoitlar va ularni ijtimoiy -innovatsion faoligini oshirish bo‘yicha qilinadigan tabdirlar va Prezidentimiz tomonidan ta’lim sohasidagi qabul qilingan qonunlar haqida.

KALIT SO‘ZLAR: talaba, ijtimoiy, faollik, ta’lim, innovatsiyalar, intellektual

Birinchi navbatda ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bolishidan qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar uning jamiyat rivojiga hissa qoshishiga zamondan ortda qolmaslika bo‘lgan harakatini tushunish mumkin. Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. [1] Zamonaviy pedagogikaning vazifasi sifatida talabalar intellektual faoligini oshirishda talim jarayonida innovatsiyalarni qo‘llanilishini tahlil qilish muhim ro‘l o‘ynaydi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida yangiliklarni joriy etish yaxshi samara bermoqda. Ta’lim jarayonini inovatsiyalar orqali yuksak saviyada tashkil etish talabalarning intellectual faoligini oshirishga xizmat qiladi. Talaba - yoshlar faolligi fuqarolik jamiyatining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. “Ijtimoiy faollik “ [2] atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning intensiv faoliyatini belgilash uchun qanday bo‘lsa uni amalga oshirishga qobiliyatini belgilash uchun ham shunday ishlatiladi. Talabalarning ijtimoiy faoligini ular o‘qiydigan ishlaydigan hayot tajribasini egallaydigan talim jamoalarining ijtimoiy faolligi bilan bog‘liq. Tadqiqotlar natijalari shuni korsatadiki ijtimoiy o‘ziga xoslik ijtimoiy meyorlar va qabul qilingan samaradorlik talaba-yoshlar faolligiga hissa qo‘shadigan muhim omillardir. Bundan bir necha yil oldin inovatsiya so‘zi ko‘pchilik uchun notanish tushuncha edi. Xorijdan kirib kelib qulog‘imizga tez tez chalina boshlagan bu atamani ahyon-ahyonda qo‘llay boshladik. Ammo ko‘p o‘tmay - Yangi o‘zbekiston islohotlari avvalida rivojlana boshlagan zamonaviy texnologiyalar va bilimlar sabab bugun “innovatsiya” til lug‘atimizdagi asosiy so‘zlardan biriga aylandi. [3] Prezidentimiz ta’kidlaganidek”Innovatsiya - bu kelajak“ degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovation g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovation rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davr hammaga ma’lum. Yangi fikr yangi g‘oyalar innovatsiyaga tayangan davlat faoliyati davrning actual talabidir. Yoshlar "Start up" "Texnoways" singari yirik texnologik rivojlanish marafonlarida o‘z iqtidor va imkoniyatlarini namoyon etyabdi. Grandlar g‘olibiga aylanib ishlanmalarini foydali qurilmalariga aylantiryabdi. Ana shunday yigit-qizlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida birinchilardan bo‘lib "Yoshlar akademiyasi " tashkil etildi. Bugun yurtimiz aholisining 60 foizini tashkil etadigan Yoshlar orasida iqtidorlilar ko‘p. Ularni har tomonlama qo‘llab - quvvatlash zamirida Esa mustaqil o‘z g‘oyalari bilan yurtimiz va Jahon maydonida munosib o‘rin egallay oladigan shaxslarni tarbiyalash yotadi. Zero Ana shunday yoshlar Yangi O‘zbekiston kelajagini bunyod etish yo‘lida shahdam qadam tashlashni boshladi. Hozirgi dunyoda innovatsion taraqqiyot modellarini joriy etish ilg‘or g‘oyalar va aqlli texnologiyalarni eksport qilish hisobidan tez sur‘atlar bilan

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

rivojlanayotgan davlatlar soni tobora ortib boryabdi. Tan olishimiz kerak ma’lum muddat mamlakatimizda bu yonalishda amalga oshirilgan ishlar qoniqarli bo’lmadi. Oxirgi 3-4 yil ichida yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu mubolag’a emas aksincha shu kunlarni orzu qilgan bir yigit tilidan chiqayotgan shukronalik so’zlari xolos. Axir qachon o’z g’oyasi loyahasiga ega yigit qizlar vazirlik darajasida qo’llab - quvvatlangan ular uchun urli tanlovlar tashkil etilgan. Harakatlar strategiyasida aynan innovatsiyalar masalasiga alohida urg’u berildi. Xususan unda ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag’batlantirish ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish oliy o’quv yurtlar va ilmiy-tadqiqot insitutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar yuqori texnologiya markazlari tashkil etilgan. So’ngi yillarda talabalarni turar joy bilan qamrab olish yangi talabalar turar joylarini qurish rekonstruksiya qilish jihozlash eng muhim vazifalardan foydalanishni tashkil etish eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida yoshlar masalalariga bag’ishlanib o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida mamlakatimizda 130 mingdan ortiq talaba ijarada yashayotgani 2021 yil 1 maydan boshlab ijara to’lovining yarmi davlat byudjeti mablag’lari hisobidan to’lanishi ta’kidlanib shu maqsadda davlat byudjetidan 100 milliard so’m miqdorida mablag’ ajratilishini ma’lum qilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov.I .A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent 2008-yil
- 2 . Pedagogik Mahorat.o’quv metodik qo’llanmasi. TDPU 2005-yil
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti pf-4947 Toshkent sh .2017-yil 7 -fevral.